

MAKTABLARDA O'QUVCHILAR ORASIDA ERTA TURMUSH QURISHNING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK ISHLAR

SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI
40- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
SADINOVA OYNISA XASANOVNA

Annotatsiya: Ushbu erta turmush qurishning salbiy oqibatlari, oldini olish, o'smirlik davri, nikoh yoshi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, o'smirlik, erta turmush, qiz bola, o'g'il bola, tarbiya. Oila — muqaddas dargoh.

Oilaning asosiy vazifasi insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan bog'lab borishdan iborat. Nikoh — bu erkak bilan ayol o'rtasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: „Oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, kelajak avlod kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir“. Erta turmush qurish — balog'at yoshiga yetib ulgurmagan, o'smirlik davrida, jinsiy tomonlama to'liq shakllanmagan yigit-qizlarning oila qurishi hisoblanadi. Nikoh yoshi mamlakatga bog'liq va qizlar va o'g'il bolalar uchun farq qilishi mumkin.



Yaqin vaqtgacha ko'plab mamlakatlarda qizlarning turmush qurish yoshi o'g'il bolalarnikiga qaraganda pastroq bo'lgan bo'lsa, hozir ko'p joylarda gender tengligini

saqlash maqsadida qiz bolalar yoshiga ko'tarildi. Nikoh uchun talab qilinadigan yosh va boshqa shartlar har bir mamlakatda bir-biridan farq qiladi, lekin qoida tariqasida, yosh o'n sakkiz yoshdan boshlab belgilanadi. Aksariyat mamlakatlar ota-onalarning roziligi yoki sud ruxsati bilan oldindan belgilangan yoshda turmush qurishga ruxsat beradi, ba'zi mamlakatlar esa, agar qiz homilador bo'lsa, yoshlarga turmushga chiqishga ruxsat beradi. Nikoh yoshini ko'pchilik tug'ilish yoshi yoki jinsiy rozilik yoshi bilan aralashtirib yubormaslik kerak, garchi ba'zi joylarda ular bir xil bo'lishi mumkin. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda nikoh uchun qonuniy yosh chegaralari faqat ko'rsatmalarda belgilab qo'yilgan. Nikoh yoshi diniy qonunga ko'ra, mamlakat qonuniga qaraganda pastroq bo'lsa, davlat qonuni tomonidan ustunlik qiladi. Biroq, ayrim diniy jamoalar bu masalada qonun ustuvorligini tan olmaydi, bu esa bolalar yoki majburiy nikohga olib kelishi mumkin. Qulikka barham berish to'g'risidagi 1956-yildagi qo'shimcha konventsianing 123 ta ishtirokchisi nikoh uchun eng kam yoshni qabul qilishga kelishib oldilar. Organizmning yetuklik yoki balog'atga yetganligi ijtimoiy tomondan uning turmush qurishga tayyor ekanligini bildiradi. Balog'atga yetganlik belgilariga, ham jismonan, ham aqlan rivojlanganlik, mas'uliyat va javobgarlik hissini tuyuvchi, tibbiyot jihatdan esa ikkilamchi jinsiy bezlarning to'liq shakllanganligi, organ va organlar sistemasining takomillashganligi, qiz bolalarda homiladorlikka anatomik tayyor ekanliklari kabi belgilar bilan belgilanadi.

O'spirinlik yosh davri qiz bolalarda 13 yoshdan to 18 yoshgacha, o'g'il bolalarda 15-16 yoshdan to 19-20 yoshgacha davom etadi. Ushbu davr jinsiy bezlar funksiyasini kuchayishi, ikkilamchi jinsiy organlar shakllanishining yakunlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa ichki sekretiya bezlarining, ayniqsa, gipofizva qalqonsimon bezning funksiyalari ham kuchayadi. Barcha azolar va tizimlar funksiyasi, uzluksiz rivojlanish oqibatida, sezilarli darajada takomillashadi. Ana shu davr o'tib, balog'at davriga o'tganidan so'ng turmush qurishga tavsiya beriladi. Lekin voyaga yetmagan qiz bolalarni erta turmushga berish hozirgi kundagi eng dolzarb global muammolardan biriga aylanib bormoqda. 1998-yil 30-aprelda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi tasdiqlandi. Oila bilan bog'liq 50 ga yaqin qonun 90 ga yaqin farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilingan. Konstitutsiyamizning 63-moddasida „Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda davlat va jamiyat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi“ deya belgilab qo'yilgan. Shuningdek, oila kodeksida ham mana shunga oid erta turmush qurish, majburiy nikoh o'qitish kabi tamoyillar, qonun doirasida belgilab o'tilgan. O'zbekistonda erta nikohning tarqalishini baholash yuqori ko'rsatgichlar (37,3 %)ni tashkil etadi, bu faqat ayrim hududlarda (16,8 %) yoki alohida hollarda (1,5 %) sodir bo'lishi mumkin. So'rov natijasida ma'lum bo'lishicha, oilada ajralishlarning

eng ko‘p sabablari turmush o‘rtoqlar xarakterining mos kelmasligi (41,2 foiz) va moddiy muammolar (40,4 foiz) hisoblanadi.

Turmush o‘rtoqlar uchun pul yetishmasligi, respondentlarning fikriga ko‘ra, ko‘pincha ajralishga olib keladigan yana bir muammo — bu alohida uy-joy yetishmasligi. Respondentlarning 12,6 foiziga ko‘ra, ajrashishning keng tarqalgan sabablaridan biri bu - bepushtlikdir. O‘rganish shuni ko‘rsatdiki, so‘rov ishtirokchilarining mutlaq ko‘pchiligi (81,3 foizi) jinsi, yoshi, ta‘lim darajasi va bandligidan qat’i nazar, ajrashishlarni oila va jamiyat hayotidagi salbiy hodisa deb biladi. Ayni paytda, so‘rov shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak turmush o‘rtoqlarning nikohdan oldin qisqa muddat — bir yildan kamroq vaqt davomida tanishishi oila barqarorligini pasaytiradigan omillardan biridir. Erta turmush qurish sabablari orasida otaonalarining farzandlarining oilaviy hayotini tezda tartibga solish istagi (48,1 %), yoshlarning reproduktiv salomatlik masalalarida to‘g‘ri bilimga ega emasligi va savodsizligi (25,9 %), o‘z farzandlarining turmushini yaxshilash istagi bor. Erta turmush qurishning zahiridagi salbiy oqibatlari daromadli nikoh orqali moliyaviy ahvol (22,5 %), rejalashtirilmagan homiladorlik (15,2 %) yotadi. Turmushga chiqish yoshini qizlar uchun 21-22 yosh, yigitlar uchun 23-25 yosh bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Erta turmush qurish oqibatida qiz bolalar o‘z mustaqilliklari va erkinliklaridan cheklanadilar. Shuningdek davlatimiz va sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan erta turmush qurishni oldini olishga oid qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan:

- Oila-mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- DPMLarida Ayollar maslaxatxonasini tashkil etish;
- Tibbiyot muassasalarda O‘smir qizlarni chuqur tibbiy mko‘rikdan o‘tkazish;
- Yoshlar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- O‘smir qizlar va ularning ota-onalari bilan erta turmush qurishning salbiyoqibatlari haqida tushuntirish ishlarini olib boorish, shuningdek o‘smirlik davridagi qiz bolalar bilan har yili chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik tashkil qilinadi. Buning natijasida har xil kasalliklar oldindan aniqlanada va davo choralari ko‘riladi. Erta turmush qurish oqibatida oilada mavjud bo‘ladigan muammolar yechimini to‘g‘ri va maqsadli hal etishda qiynaladilar. Farzandlar tarbiyasida tajribasizliklari sababli muammolar yuzaga keladi. Erta turmush qurish oqibatida o‘z tengdoshlari kabi hayot go‘zalligidan to‘liq bahramand bo‘la olmaydilar. (o‘z istaklari va orzulariga yetisha olmaydi.).

O‘smir qizlarda homilaning rivojlanishi og‘ir o‘tadi, homila yaxshi rivojlanmaydi, og‘irligi kam bo‘ladi, ko‘p holatlarda bola chala va nimjon tug‘iladi. O‘smir qizlardagi tug‘ish jarayoni ham og‘ir o‘tadi, tos suyaklari yaxshi rivojlanmaganligi sababli tabiiy yo‘l orqali tug‘ish jarayoni qiyinlashib, ko‘pgina holatlarda kesar-kesish yo‘li bilan yakun topadi; O‘smir qizlar homilador bo‘lganlarida ko‘proq zararli odatlarga beriluvchan bo‘ladi, ya‘ni kashandalik, spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni ko‘proq iste‘mol qilishga moyil bo‘ladilar. Shuningdek, o‘smir qizlar organizmi

homiladorlikka to'liq tayyor bo'lmashligi oqibatida dunyo bo'yicha yosh onalar o'limi soni ortib bormoqda. Erta turmush qurishning salbiy oqibatlari orasida eng keng tarqalgan muammolardan quyidagilar qayd etiladi: ajrashgandan keyin ona sobiq erining yordamisiz ko'pincha bolani yolg'iz o'zi tarbiyalaydi

— 42 %, tez-tez ajralishlar

— 38 %, qiyin moliyaviy va uyjoy holatida yashamoq

— 27 %, ruhiy buzilishlar

— 13 %. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olish uchun, albatta, belgilangan yoshda turmush qurish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „ERTA TURMUSHGA CHIQISHNING OQIBATLARI“ www.naqshband.uz. Ўзбекистон мусулмонлари идораси Бухоро вилояти вакиллиги .
2. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Toshkent – 2019 yil. “Tafakkur” nashriyoti.
3. Vygotskiy L.S. – “Psixologik rivojlanish nazariyalari”
3. Galperin P.Ya. – “Diqqat va bilish jarayonlari”
4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim qonunlari va metodik qo'llanmalar
5. Internet ma'lumotlari. 23, Issue 10, 24.